O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“O‘ZBEK TILINING GLOBAL MAQOMI VA NUFUZINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI







2026-yil
16-oktabr

O‘ZBEK TILI IBORALAR KORPUSINI YARATISHNING LINGVISTIK VA KOMPYUTER ASOSLARI

LINGUISTIC AND COMPUTATIONAL FOUNDATIONS FOR CREATING A CORPUS OF UZBEK IDIOMS

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2026.10.16/HCYX8903

Kasimova Ziyoda Movlon qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsent v.b., PhD
kasimova_ziyoda1993@mail.ru

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi iboralarni elektron shaklda jamlash, tizimlashtirish, lingvistik jihatdan annotatsiyalash va ular asosida maxsus iboralar korpusini yaratish masalalari yoritiladi. Maqolada iboralar korpusini yaratishning asosiy bosqichlari, korpus birliklarini tanlash mezonlari, metama’lumotlar tizimi, lingvistik annotatsiya, frazeologik birliklarni avtomatik aniqlash, qidiruv tizimi va ma’lumotlar bazasining taxminiy modeli taklif etiladi. Shuningdek, o‘zbek tili iboralar korpusini yaratishning amaliy va ilmiy istiqbollari ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *ibora, frazeologizm, frazeologik birlik, korpus lingvistikasi, til korpusi, iboralar korpusi, elektron lug‘at, lingvistik annotatsiya, avtomatik tahlil, metama’lumot.*

Annotation. *This article addresses the issues of collecting, systematizing, and linguistically annotating Uzbek idioms in electronic format, as well as creating a specialized corpus of idioms based on this data. It outlines the key stages of creating an idiom corpus and proposes approaches regarding selection criteria for corpus units, the metadata system, linguistic annotation, the automatic identification of phraseological units, and a preliminary model for the search system and database. Furthermore, the article highlights the practical and scientific prospects of developing an Uzbek idiom corpus.*

Keywords: *idiom, phraseologism, phraseological unit, corpus linguistics, language corpus, idiom corpus, electronic dictionary, linguistic annotation, automatic analysis, metadata.*

XXI asr tilshunosligida lingvistik tadqiqotlarning elektron texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi natijasida korpus lingvistikasi alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi. Til birliklarini katta hajmdagi real matnlar asosida o‘rganish

tilning tabiiy qo‘llanish holatini aniqlash, statistik ma’lumotlarni olish, birliklarning kontekstual va funksional xususiyatlarini tadqiq etish imkonini bermoqda. Ayniqsa, frazeologik birliklarni korpus asosida o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir.

Frazeologizmlar milliy tilning obrazlilik, ekspressivlik va milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim birliklardan biri hisoblanadi. Ularni an’anaviy lug‘atlarda qayd etish bilan bir qatorda, zamonaviy korpus lingvistikasi imkoniyatlari asosida elektron bazaga kiritish iboralarning qo‘llanish chastotasi, kontekstual xususiyatlari, grammatik shakllari, semantik guruhlari hamda uslubiy imkoniyatlarini tadqiq etish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Frazeologizmlar tilning leksik tarkibida o‘ziga xos mavqega ega bo‘lib, ular ko‘pincha nominativ vazifadan tashqari, obrazlilik, emotsionallik, ekspressivlik va baholash ma’nolarini ham ifodalaydi. Iboralarning ma’nosi ko‘p hollarda uning tarkibidagi komponentlarning alohida ma’nolaridan kelib chiqmaydi. Shu sababli ularni oddiy so‘z birikmalaridan farqlash, elektron matnlardan avtomatik ajratib olish va lingvistik jihatdan tavsiflash muayyan nazariy hamda amaliy muammolarni yuzaga keltiradi.

An’anaviy frazeologik lug‘atlar iboralarning shakli va izohini berishda muhim manba bo‘lsa-da, ular iboraning real matnlardagi qo‘llanish chastotasi, variantlari, muayyan muallif yoki janrga xosligi, kontekstual o‘zgarishlari haqida yetarli darajada ma’lumot bera olmaydi. Shu jihatdan iboralar korpusini yaratish zarurati yuzaga keladi.

1.Iboralar korpusi tushunchasi va uning lingvistik ahamiyati. Iboralar korpusi – muayyan til yoki tilning alohida davri, janri, mualliflari yoxud uslubiga mansub matnlarda qo‘llangan frazeologik birliklarning elektron shaklda jamlangan, strukturaviy va lingvistik jihatdan annotatsiyalangan maxsus ma’lumotlar majmuasidir.

Umumiy til korpusidan farqli ravishda iboralar korpusi muayyan tadqiqot obyekti – frazeologik birliklarga yo‘naltiriladi. Bunday korpusda nafaqat iboraning o‘zi, balki uning matndagi konteksti, grammatik shakli, variantlari, ma’nosi, uslubiy xususiyati va qo‘llanish chastotasi haqidagi ma’lumotlar ham saqlanishi lozim.

Iboralar korpusining yaratilishi quyidagi ilmiy masalalarni tadqiq qilish imkonini beradi:

- iboralarning qo‘llanish chastotasini aniqlash;
- faol va kam qo‘llanadigan iboralarni ajratish;

- iboralarning semantik guruhlarini belgilash;
- iboralarning grammatik modellarini aniqlash;
- iboralarning variant va sinonimlarini qiyoslash;
- muayyan muallif yoki davrga xos frazeologizmlarni aniqlash;
- iboralarning uslubiy xususiyatlarini o‘rganish;
- iboralarning kontekstual ma’nolarini aniqlash;
- iboralarning tarixiy taraqqiyotini kuzatish;
- avtomatik tarjima va tabiiy tilni qayta ishlash tizimlari uchun lingvistik resurs yaratish.

Demak, iboralar korpusi faqat elektron lug‘atning kengaytirilgan shakli emas, balki frazeologik birliklarni ko‘p parametrli tahlil qilish imkonini beruvchi lingvistik axborot tizimi hisoblanadi.

2.Iboralar korpusini shakllantirish manbalari.

Korpusning ilmiy qiymati, avvalo, uning manbalariga bog‘liq. Iboralar korpusini yaratishda badiiy adabiyotlar, publitsistik matnlar, ilmiy-ommabop asarlar, dramaturgik asarlar, folklor namunalari, zamonaviy internet matnlari va boshqa elektron resurslardan foydalanish mumkin.

O‘zbek tili iboralar korpusini yaratishda tarixiy va zamonaviy matnlarning mutanosibligi muhim ahamiyatga ega. Chunki ayrim frazeologik birliklar muayyan davrga xos bo‘lishi, ayrimlari esa vaqt o‘tishi bilan faolligini yo‘qotishi mumkin.

Manbalarni quyidagi guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq:

1. Badiiy matnlar – roman, qissa, hikoya, drama va she’riy asarlar.
2. Publitsistik matnlar – gazeta, jurnal va internet nashrlari.
3. Og‘zaki nutq materiallari – suhbat, intervyu va dialoglar.
4. Folklor matnlari – ertak, doston, maqol va matallar.
5. Tarixiy matnlar – eski o‘zbek adabiyoti va jadid davri matnlari.
6. Frazeologik lug‘atlar – iboralarni identifikatsiya qilish va semantik tavsiflash uchun yordamchi manba.

Korpusga matnlarni tanlashda muallif, asar nomi, yaratilgan yili, janri, nashriyot ma’lumotlari va matnning elektron shaklga o‘tkazilish manbasi kabi bibliografik ma’lumotlar alohida saqlanishi kerak.

3.Iboralarni korpusga kiritish mezonlari.

Iboralar korpusini yaratishda eng muhim masalalardan biri – qaysi birlikni frazeologik birlik sifatida belgilash masalasidir. Chunki erkin so‘z birikmasi bilan turg‘un birikma o‘rtasidagi chegarani har doim ham qat’iy belgilash oson emas.

Masalan, “ko‘zini ochmoq” birikmasi ayrim kontekstlarda bevosita fiziologik harakatni, ayrim holatlarda esa “hushyor bo‘lmoq”, “anglamoq”, “tajriba orttirmoq” kabi ko‘chma ma’nolarni ifodalashi mumkin. Shu sababli korpusda nafaqat iboraning lug‘aviy shakli, balki uning real kontekstdagi ma’nosi ham qayd etilishi lozim.

Iboralarni tanlashda quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin:

- semantik yaxlitlik;
- komponentlarning turg‘unligi;
- ko‘chma yoki frazeologik ma’noning mavjudligi;
- nutqda takroriy qo‘llanish;
- grammatik turg‘unlik;
- variantlilik darajasi;
- lug‘atlarda qayd etilganligi;
- kontekstda obrazli ma’no ifodalashi.

Shu bilan birga, korpusga kiritiladigan birliklar uchun asosiy shakl va matndagi shakl tushunchalarini farqlash muhim. Masalan, lug‘aviy birlik “ko‘ngliga tugmoq” shaklida berilsa, matnda “ko‘nglimga tugdim”, “ko‘ngliga tugib oldi”, “ko‘ngillariga tugdilar” kabi turli grammatik shakllarda uchrashi mumkin.

4.Iboralar korpusining lingvistik annotatsiyasi.

Korpusning ilmiy imkoniyatlarini kengaytiruvchi asosiy vositalardan biri lingvistik annotatsiyadir. Annotatsiya orqali matndagi har bir iboraga muayyan lingvistik teglar biriktiriladi.

Iboralar korpusida quyidagi annotatsiya qatlamlarini joriy etish maqsadga muvofiq:

Annotatsiya turi	Saqlanadigan ma’lumot
Leksik	Iboraning asosiy shakli
Morfologik	Grammatik shakli
Sintaktik	Gapdagi sintaktik vazifasi
Semantik	Iboraning ma’nosi
Uslubiy	So‘zlashuv, badiiy, publitsistik va b.

Ekspressiv	Ijobiy, salbiy, neytral
Variant	Iboraning variantlari
Manba	Asar va muallif
Davr	Yaratilgan davri
Kontekst	Iboraning real qo‘llanishi
Chastota	Korpusdagi uchrash soni

Bunday tizim foydalanuvchiga, masalan, “XIX–XX asr o‘zbek badiiy matnlarida salbiy baholi frazeologizmlar” yoki “Cho‘lpon asarlarida inson ruhiy holatini ifodalovchi iboralar” kabi murakkab qidiruvlarni amalga oshirish imkonini beradi.

5. Iboralar korpusining kompyuter modeli. Iboralar korpusining texnik tuzilishini ma’lumotlar bazasi asosida tashkil etish mumkin. Bunda har bir ibora alohida identifikatsiya raqamiga ega bo‘ladi.

Masalan, ma’lumotlar bazasining soddalashtirilgan modeli quyidagicha bo‘lishi mumkin: Ibora_ID → ibora_shakli → ma’no → variant → semantik_guruh → uslub → manba → muallif → sana → kontekst → chastota.

6. Iboralarni avtomatik aniqlash masalasi.

Korpus lingvistikasida eng murakkab vazifalardan biri frazeologik birliklarni katta hajmdagi matnlardan avtomatik aniqlashdir. Oddiy kalit so‘z qidiruvi ko‘p hollarda yetarli natija bermaydi. Chunki bitta ibora turli grammatik shakllarda yoki komponentlar orasiga qo‘shimcha birliklar kirishi bilan qo‘llanishi mumkin.

Masalan, “ko‘ngliga tugmoq” iborasi matnda:

- ko‘ngliga tugmoq;
- ko‘ngliga tugib qo‘ymoq;
- ko‘nglimga tugdim;
- ko‘ngliga mahkam tugdi kabi shakllarda uchrashi mumkin.

Shuning uchun avtomatik aniqlash tizimida morfologik analiz, lemmatizatsiya, sintaktik tahlil va statistik usullardan foydalanish talab etiladi.

Iboralarni avtomatik aniqlashning dastlabki bosqichida lug‘atga asoslangan usuldan foydalanish mumkin. Bunda mavjud frazeologik lug‘atdagi birliklar elektron shaklga keltirilib, korpus matnlari bilan taqqoslanadi. Keyingi bosqichda

statistik usullar orqali lug‘atda mavjud bo‘lmagan, biroq matnlarda turg‘un tarzda takrorlanadigan birikmalar aniqlanishi mumkin.

Kelgusida mashinaviy o‘qitish va tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari asosida o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarni avtomatik aniqlash tizimini yaratish mumkin.

7. Jadid adiblari asarlari asosida iboralar korpusini yaratish.

O‘zbek tilining tarixiy taraqqiyotini o‘rganishda jadid adabiyoti alohida ahamiyatga ega. Jadid adiblari asarlarida xalq tilining boy imkoniyatlari, obrazli ifodalar, maqol va matallar, frazeologik birliklar keng qo‘llangan.

Shu jihatdan jadid adiblari asarlaridagi iboralarni alohida elektron korpusga jamlash ikki muhim vazifani bajaradi. Birinchidan, XX asr boshlaridagi o‘zbek tilining frazeologik tarkibini tizimli o‘rganish imkoniyati yuzaga keladi. Ikkinchidan, mazkur birliklarning zamonaviy o‘zbek tilidagi holati bilan qiyoslash imkoniyati yaratiladi.

Jadid frazeologik korpusining asosiy birliklari quyidagi ko‘rinishda bo‘lishi mumkin: Muallif → asar → matn → ibora → kontekst → ma’no → variant → semantik guruh → uslub → grammatik model → chastota.

Masalan, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Abdulla Avloniy kabi adiblar asarlaridan iboralar ajratib olinib, ularning qo‘llanish holatlari alohida qayd etilishi mumkin. Bunday korpus asosida “jadid adabiyotida inson ruhiy holatini ifodalovchi frazemalar”, “jadid matnlarida ijtimoiy-siyosiy mazmundagi iboralar”, “Cho‘lpon va Qodiriy asarlarida frazeologik birliklarning qo‘llanish chastotasi” kabi tadqiqotlarni amalga oshirish mumkin.

8. Korpusdan foydalanish imkoniyatlari.

Iboralar korpusi nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy tilshunoslikning ko‘plab sohalari uchun muhim lingvistik resurs hisoblanadi.

Birinchidan, undan frazeologik lug‘atlarni yaratish va yangilashda foydalanish mumkin. Korpusdagi real kontekstlar lug‘at maqolalarini yanada mukammallashtiradi.

Ikkinchidan, korpus o‘zbek tilini o‘qitish jarayonida muhim vosita bo‘la oladi. Talaba iboraning faqat izohini emas, balki uning real matndagi qo‘llanishini ham ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Uchinchidan, iboralar korpusi mashina tarjimasi tizimlari uchun zarur lingvistik material vazifasini bajaradi. Frazeologik birliklarni so‘zma-so‘z tarjima qilish ko‘pincha noto‘g‘ri natija berishi sababli, ularning ekvivalentlarini aniqlash uchun korpus ma’lumotlari muhimdir.

To‘rtinchidan, korpus kompyuter lingvistikasi va tabiiy tilni qayta ishlash tizimlari uchun frazeologik resurs sifatida xizmat qiladi.

Beshinchidan, korpus yordamida iboralarning statistik va kvantitativ tahlilini amalga oshirish mumkin. Muayyan muallif, janr, davr yoki mavzuda qaysi iboralar ko‘proq ishlatilishini aniqlash imkoniyati yuzaga keladi.

Xulosa. O‘zbek tili iboralar korpusini yaratish zamonaviy korpus lingvistikasi va frazeologiya kesishgan nuqtada yuzaga keladigan muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biridir. Iboralarning elektron bazasini yaratish ularni faqat lug‘aviy birlik sifatida emas, balki real nutqdagi qo‘llanishi, konteksti, grammatik shakli, semantikasi va uslubiy xususiyatlari bilan birgalikda o‘rganish imkonini beradi.

Iboralar korpusini yaratish jarayonida, avvalo, korpus manbalarini tanlash, matnlarni elektron shaklga keltirish, frazeologik birliklarni aniqlash, ularni standartlashtirish, annotatsiyalash va ma’lumotlar bazasiga joylashtirish masalalarini hal etish lozim. Keyingi bosqichlarda avtomatik qidiruv, statistik tahlil, mashinaviy o‘qitish va tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish mumkin.

Ayniqsa, jadid adiblari asarlaridagi frazeologik birliklar asosida maxsus korpus yaratish o‘zbek tilining tarixiy frazeologik qatlamini o‘rganish, milliy-madaniy birliklarni aniqlash va ularning zamonaviy til bilan aloqasini tadqiq etishda katta ilmiy ahamiyatga ega.

Shunday qilib, iboralar korpusi o‘zbek tili uchun zamonaviy raqamli lingvistik resurs sifatida shakllantirilishi va kelgusida frazeologik lug‘atchilik, kompyuter lingvistikasi, tarjimashunoslik, til o‘qitish metodikasi hamda korpus tadqiqotlari uchun muhim ilmiy baza bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent., 2022.

2. Xolmanova Z. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent., 2019.

3. Kasimova Z. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili. O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari, Vol. 1 No. 01, 2025. B.88-91.

4. Kasimova Z. Analysis of phraseological units in the poetry of Abdurauf Fitrat. International Journal Of Literature And Languages, 2026. B.122-125.

5. Kasimova Z. Semantic-stylistic features of folk expressions in Chulpan poetry. International conference on linguistics and translation, 2026. B.150–152. https://doi.org/10.5281/zenodo.19228804.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI		
Sirojiddinov Sh.S.	O‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish zarurati	**6**
I. O‘ZBEK TILINING JAHON TILLARI TIZIMIDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI		
Xolmanova Z.	O‘zbek tilining jahon tillari tizimidagi mavqeyini belgilashda lingvodidaktikaning o‘rni	**9**
Abdushukurov B.	Alisher Navoiy asarlaridagi qadimgi turkiy fe’llar semantikasi	**16**
Xudoyberdiyev J.	Mahmud Koshg‘ariy – singarmonizmning birinchi nazariyotchisi va ovrupolik olimlarning singarmonizm haqidagi xato qarashlari	**30**
Abdurahmanova M.	Alisher Navoiy merosi psixolingvistik talqinda	**45**
Xolmurodova M.	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tabobatga doir ayrim arabcha so‘zlar	**51**
O‘razova I.	Ot frazemalarning grammatik funksiyasi (Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi frazemalar misolida)	**56**
Maxkamova D.	O‘zbek tili axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	**60**

	terminologiyasi taraqqiyoti va tadqiqi	
Oripova M.	Sinestezik metaforalarda sezgilar interperatsiyasi	**66**
Muratova N.	Tilak va tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ taktikaning tanlanish xususiyatlari	**72**
Abdullayeva G.	Folklor diskursida o‘xshatishlarning semantik-struktur va kognitiv tahlili	**78**
Xayrullayeva R.	Kichraytirish-erkalash shakllarining pragmatik ifodalanishi	**86**
Jumaniyozova Ch.	Sifat so‘z turkumida obyektiv va subyektiv belgilarning ifodalanishi	**90**
Abduvaliyeva K.	“Shajarayi turk” asaridagi ba’zi urug‘ nomlarining etnotoponim sifatidagi tahlili	**95**
Mullaboyeva Sh.	O‘zbek tilida o‘xshatishlar asosida estetik bahoning ifodalanishi	**107**
Mamadoliyeva M.	Graduallik kategoriyasining lingvistik tabiati va uning turdosh hodisalar bilan munosabati (Xayriddin Sultonov va Iqbol Mirzo asarlari misolida)	**115**
Mamarasulova M.	O‘zbek tili fonosemantik tahlilining fonologik asoslari	**130**
Siddiqova N.	O‘zbek xalq maqollaridagi eskirgan leksika: tarkibi,	**132**

	variantlanishi va lingvopoetik vazifalari	
Yusupova A.	Konseptlarning metaforik ifodalanishi va tahlil shakllari	**144**
O‘ralova N.	O‘zbek tilshunosligida parsellyatsiya hodisasi, uning sintaktik tavsifi va ega-kesim munosabatidagi o‘rni	**150**
Maxmudova M.	Kelishik kategoriyasining o‘rganilish tarixiga doir ayrim mulohazalar	**158**
Nurmatova S.	O‘zbek tilida rang ifodalovchi birliklarning lingvokognitiv strukturasi va konseptualizatsiya masalalari	**168**
Keldiyorova Z.	O‘zbek tilidagi shikoyat matnlarida nutqiy aktlarning ifodalanishi	**174**
Aliqulova Z.	Toponimlarning axborotni saqlash va uzatish xususiyatlari	**178**
Jurayeva Sh.	Hurmat kategoriyasining lisoniy birliklar bilan ifodalanishi	**183**
Karimova U.	Kultegin bitiktoshidagi xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar tahlili	**188**
II. O‘ZBEK TILINI XALQARO MAYDONDA TARG‘IB QILISH STRATEGIYALARI		
Shamsiyeva M.	Peyzaj matnlari orqali turizmni rivojlantirish istiqbollari	**194**

Jo‘rayeva M.	Matnni tushunishda asar sarlavhasining ahamiyati	**201**
III. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TIL VA MADANIYATNI SAQLASH MASALALARI		
Ashirboyev S.	Adstrat sharoitidagi turkiy shevalarning o‘zaro ta’siri masalasi	**205**
Farhad Rahimi	Yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk kelimeleri üzerine On the words yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk	**210**
Xakimova M.	O‘zbek tilidagi metaforik konseptuallashtirishning milliy xususiyatlari	**232**
Abbozov O.	So‘x toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari	**238**
Komilova G.	O‘zbek tilida qadriyatlar tipologiyasining lingvistik verbalizatsiyasi	**245**
Xomidova M.	Zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida ertak elementlarining intertekstual xususiyatlari	**253**
Həsənzadə Səmra	Qrammatik metaforun türk dillərində reallaşması (özbək dilinin materiallari əsasinda)	**261**
Davronova Z.	Antroponimik freymlarda registrdan og‘ish fenomini (Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani misolida)	**272**

Tursinbayeva Sh.	Badiiy matnda onomastik birliklarning lingvomadaniy imkoniyatlari	**276**
Bekmuradova I.	O‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksemalarining semantik tasnifi	**283**
Imomova I.	Fitratning dramatik asarlarida maqollarning qo‘llanilishi va funksional-semantik xususiyatlari	**291**
Turgunboeva D.	Globallashuv sharoitida o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatida miqdoriy me’yor	**297**
Amrullayeva M.	O‘zbek tilida inson xarakterini ifodalovchi frazemalarning semantik mikromaydonlari	**305**
Abdug‘afurova A.	Lingvomadaniy kodlarning poetik faollashuvi: Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam she’riyati qiyosida	**312**
Muzaffarova Z.	Badiiy matnda qo‘llangan metaftonimik birliklarning kognitiv xususiyatlari	**322**
Jumayeva M.	Son komponentli lug‘aviy birliklarning lingvokulturologik tahlili	**327**
Xolmo‘minova H.	Frazemalarning lingvomadaniy tahlili	**333**
IV. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA XORIJIY TAJRIBA		

Xusanova N.	Raqamli ta’lim muhitida o‘qish savodxonligi transformatsiyasi vositasida boshlang‘ich o‘quvchilarning kreativligini shakllantirish	**337**
Mamirova X.	Bolalarda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlari va til ta’limiga ta’siri	**344**
Arolova N.	Maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalari nutqida sintaktik tejamkorlik	**351**
Mirnosirova D.	Nutqiy ijod haqidagi nazariy qarashlar talqini	**356**
Nurboboyeva R.	Erta yoshdagi bolalar ta’limida adabiyotning tutgan o‘rni	**363**
Keldiboyeva M.	O‘zbek tili omonimlarini o‘zlashtirishda kontekst va assotsiatsiyaning psixolingvistik roli	**369**
V. TARJIMA VA LINGVOMADANIY ALOQALAR: XALQARO HAMKORLIKNING MUHIM OMILI SIFATIDA		
Mustafa Said Arslan	Türkiye türkçesi ve özbek türkçesi arasindaki yakinliğin öğretimdeki yansimalari: özbek türkçesi öğretiminde karşilaşilan sorunlar ve öneriler	**378**
Kalanova D.	O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari” asarining koreyscha tarjimasida milliy-madaniy realiyalarning berilishi	**389**

Muhammadiyeva D.	Ko‘p tilli parallel korpusning tarjima birliklarini qiyosiy o‘rganishdagi imkoniyatlari	**400**
Abbasova Ş.	Özbek Yazı Dili ve Azerbaycan Türkçesi'nin Ağızlarında Akrabalık Terimleri	**411**
Qarshiyev K.	Badiiy tarjimaning adabiy-estetik tafakkur evolyutsiyasiga ta’siri (Jamol Kamolning tarjimonlik faoliyati misolida)	**418**
Rahimova Z.	Parallel korpuslarning tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi ilmiy ahamiyati	**428**
Bozorova S.	Rus tilidagi ayrim gippologik birliklar tadqiqiga doir	**433**
Axmedova N.	O‘zbek va ingliz tillarida ruhiy holat birliklarining semantik farqlari va kontekstual tarjimasi	**442**
Davlatova R.	Sun’iy intellekt asrida inson nutqi, tilni idrok etish va psixolingvistik jarayonlar	**448**
Turdiyeva R.	Ingliz, qoraqalpoq va o‘zbek tillaridagi maqollarda zoonimlarning lingvokognitiv tahlili (“bo‘ri” misolida)	**462**
Ataniyazova S.	O‘zbek va ingliz tillarida mayl, zamon va modallikning muloqot xulqidagi funksional-uslubiy imkoniyatlari	**466**
Sayfiyeva K.	O‘zbek va ingliz fitonim komponentli maqollarida inson	**472**

	konseptining kognitiv metaforik modellari	
Tillayeva O.	O‘zbek va turk maqollarida erkak konseptining semantik maydoni	**485**
Musurmankova Sh., **Abdullayeva D.**	“Ikki eshik orasi” romanidagi murojaat birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari va tarjima muammolari	**495**
Abdullayeva M.	Ingliz va o‘zbek maqollarida nutqiy antonimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari	**502**
VI. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLI MUHITDA O‘ZBEK TILINING RIVOJI		
Abjalova M.	O‘zbek tili multikorpusida aksentologik korpus va uning ahamiyati	**513**
Elova D.	O‘zbek normativ-huquqiy matnlarini lingvo-mantiqiy annotatsiyalash mezonlari	**524**
Kasimova Z.	O‘zbek tili iboralar korpusini yaratishning lingvistik va kompyuter asoslari	**534**
Nurullayeva O.	Barqaror birikmalar resurslari va parallel korpus uchun baza tuzish mezonlari	**542**
Musulmonova K.	Lingvistik ekspertologiyada matn identifikatsiyasi bo’yicha ekspert xulosalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari	**550**

Umarova Sh.	Kollokatsiyalarni korpus asosida aniqlashning nazariy va metodologik asoslari	**556**
Akramdjanova M.	Parallel korpusning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o‘rni	**564**
Buronova R.	Raqamli muhitda o‘zbek tilidagi neologizmlarning shakllanishi	**570**
Shodmonaliyeva Y.	Sentiment tahlilda tasdiq-inkor emojlarining diskursiv va pragmatik funksiyalari	**576**
Rayimjonova M.	Rauf Parfi she’riyatining leksik-statistik xususiyatlari	**591**
VII. XALQARO TA’LIM DASTURLARI VA O‘ZBEK TILI: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR		
Mirzəli Məleykə	Azərbaycanda özbək dilinin tədrisi: təcrübə və perspektivlər (bakı slavyan universitetinin timsalında)	**595**
Iskandarova G.	O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish	**603**
VIII. O‘ZBEK TILI VA DIPLOMATIYA: XALQARO MUNOSABATLARDA TILNING O‘RNI		
Темирова Б., **Темирова М.**	Кыргыз, өзбек тилдери жана алардын адабий-маданий байланыштардагы ролу	**610**

Nazarov Q.	O‘zbek diplomatik diskursida metaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	**620**
IX. ILMIY TADQIQOTLAR VA LINGVISTIKADA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI		
Berdak Yusuf	O‘zbek tilining shakllanish jarayoni va eski o‘zbek tili terminlari	**626**
Qurbonova M.	Xarizmatik nutq haqidagi nazariy qarashlar talqini	**632**
Umurzoqova M.	Erkin A’zam asarlarida lisoniy shaxs tiplari	**640**
Mirzaali Malika	O‘zbek tılının mavsumıy marosımlar leksıkasıda turkıy areal mavqeyı	**646**
Məmmədova A.	Xarəzm Türkcəsində Və Müasir Özbək Dilində Qohumluq Terminlərində Cins Kateqoriyasinin İfadəsi	**661**
Tuxtasinova M.	L.Z.Budagov lug‘atidagi umumturkiy leksik fond: “tur.” pometali leksemalarning tarixiy-qiyosiy tahlili	**670**
Abdullayeva S.	So‘z yasalishını qıyosıy-tıpologık tadqıq etısh metodologıyası va tahlıl mezonları	**681**
Xasanova G.	Kinesikaning lingvistik tadqiqi: shakllanish tarixi va kommunikativ funksiyalari	**688**

Rajabov N.	O‘zbek tilida ng fonemasining talaffuzi, imlosi va tarixiy taraqqiyoti	**695**
Mirzayeva G.	O‘zbek tilida tovush o‘zgarishlarining neyrolingvistik asoslari	**699**
Arislanova M.	She’riy matnning konseptual tizimi va lingvokognitiv xususiyatlari (Erkin Vohidov ijodi misolida)	**706**
Muhammadiyeva M.	“Shum Bola” qissasidagi ba’zi polisemantik leksemalar tahlili	**717**
Abdullayev G‘.	Fitrat she’riyatidagi turkiy so‘zlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari	**722**
Tursunova S.	Ironiyada implikatura fenomeni va yashirin ma’no mexanizmlari	**726**
Turobova N.	Badiiy diskursda morfologik vositalarning pragmatik xususiyatlari	**737**
Utegenova O‘.	O‘zbek tilida tasviriy ifodalarning badiiy matnda qo‘llanilishi	**744**
Komilova G.	Tarixiy-badiiy matnlar korpuslarini yaratish zarurati va ularni semantik modellashtirish masalalari	**749**
Haydaraliyeva Sh., Mo‘minova M.	O‘zbek tili leksikasining taraqqiyot tamoyillari va semema tushunchasi	**759**

Axmedova M.	Diskurs tushunchasining lingvistik talqini: nazariy yondashuv va ilmiy qarashlar	**768**
Komilova Sh.	Lingvokultrologiyada evfemizm va milliy mentalitet: ayollar nutqi misolida nazariy talqinlar	**774**
Suyunova D.	“Boburnoma” dagi leksik qatlamlarning “Boburiynoma”da badiiy qayta faollashuvi: leksik-semantik va funksional-uslubiy tahlil	**780**
Maqsudaliyeva Y.	Lingvistik ekspertiza va lingvokriminalistik tahlil: nazariya va amaliyot	**786**
Abdurasulova D.	O‘zbek qizlari nutqidagi neonim va slenglarning pragmalingvistik tadqiqi	**792**
Majidova M.	Tibbiy soha rahbarlari kinesik nutqining lingvosomatik tadqiqi	**797**
Abdullayeva I.	Gender qadriyatlarning aksiolingvistik tahlili	**802**
X. O‘ZBEK TILINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA MEDIA MAKONIDAGI O‘RNI		
Saydaliyeva M.	Kinodiskurs multimediali muloqot tizimi sifatida	**809**
Otaxonova S.	Mediamatnlarda antroponimlarning pragmatik imkoniyatlari	**813**